

52060373

Kitob tuman Tibbiyot birlashmasining tanlov ishtirokchilar takliflarini ko'rib chiqish va baholash komissiyasining

Yig'ilish bayonnomasi № 32

“17” yanvar 2022 yil

Kitob tumani

Komissiya raisi: - SH.X.Gapparov
Komissiya kotibi: - A.Xoliqov
Yig'ilishda qatnashdilar jami 7 kishi

Kun tartibida ko'riladigan masala .

Kitob tuman Tibbiyot birlashmasida davolanuvchi bemorlarni 0.600gr 1navli Qolipli non (maxalliy) dilan ta'minlash maqsadida Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy) non xarid qilish uchun tanlov asosida ulgurji savdo qiluvchi korxonalaridan sifatli Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy) non xarid qilish to'g'risida.

Kun tartibidagi masala yo'zasidan komissiya raisi SH.X.Gapparov so'zi: shifoxonamizda davolanayotgan bemorlarni Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy) non bilan o'z vaqtida sifatli maxsulotlari bilan ta'minlashimiz uchun ulgurji Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy) non bilan savdo qiluvchi tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalar olib borishimiz kerak.

Tashkilotimizni 2022 yil yanvar oyida Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy) non bilan taminlash maqsadida tashkilotimizga 3(uch)ta firmadan, ya'ni qo'yidagi Kitob tumani «Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat» MCHJ, Kitob tumani Oq suv Mchj, Kitob tumani «Sevinch» MCHJ dan Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy non ulgurji sotish narxlari bo'yicha tijorat takliflari berilgan.

Bizning shifoxonamizga o'zlarini tijorat takliflarini taklif etgan korxonalarni narxlarini birgalikda tanlov tariqasida komissiya a'zolari ko'rib chiqib o'zlarini fikrlarini bildirishsin.

Ushbu takliflarni ko'rib chig'ish jarayonida tanlov komissiyasi korxonalarining takliflarini o'rganib chiqayotganda, maxsulotlarni sifati, narxi, olib kelinayotgan masofani o'zoqyaqinligi, maxsulotlarni o'z vaqtida etkazib berish, Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy)noni bilan ta'minlash imkoniyatlarini xisobga olib birgalikda korxonalaridan taklif qilishgan narxlarni ko'rib chiqamiz..

Bugungi tanlovimizda 3 ta korxonaga qatnashdi

№	Maxsulotlar nomi	Ulchov Birli gi	narxi		
			Kitob tumani «Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat» MCHJ	Kitob tumani Oq suv Mchj	Kitob tumani «Sevinch» MCHJ
1	Qolipli non 1nav 0.600gr (maxalliy)	kg	1700	1800	1750

Tanlov komissiyasi a'zolari tibbiyot birlashmamizga taklif etgan tijorat takliflarini ko'rib chiqib, Kitob tumani «Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat» MCHJ bergan tijorat takliflarida ko'rsatilgan 0.600gr 1navli Qolipli non (maxalliy) arzonligi, sifatligi, o'z vaqtida ta'minlab bera olish bo'yicha imkoniyatlari borligi va xar tomondan qo'layligini inobatga olgan xolda, ushbu 2 040 000,00 so'mlik 0.600gr 1navli Qolipli non (maxalliy)noni Kitob tumani «Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat» MCHJsidan xarid qilishni maqul topishdi va bir ovozdan tanlov komissiyasi

QAROR QILADI :

1. Kitob tumani «Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat» MCHJ g'olib deb tan olinsin.
2. Ushbu korxonaga bilan to'zilgan shartnomaviy va buxgalteriya hisob xo'jjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirish bosh xisobchi E.K.Hamdammovga yuklatilsin.
3. Ushbu qarorini bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmanda qoldiraman.

Komissiya raisi: SH.X.Gapparov
 Kitob tuman tibbiyot birlashma boshliq o'rinbosari: Z.M.Xayrullaev.
 Kitob tuman tibbiyot birlashmasi iqtisodiy va umumiy masalalar bo'yicha boshliq o'rinbosari: S.L.Muxammadiyev
 Kitob tuman tibbiyot birlashma iqtisodchisi: SH.Toshpulatov
 Kitob tuman tibbiyot birlashma dorixona mudiri: A.M.Sultonov.
 Kitob tuman tibbiyot birlashma ichki kasalliklar bo'lim mudiri: E.B.Xasanov.
 Kitob tuman tibbiyot birlashma jarroxlilik bo'lim mudiri: I.SH.Bobomurodov

SHARTNOMA № 22

(Ishchi xizmatchilarga oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib berish to'g'risida)

22 "Yanvar 2022 yil.

Kitob tumani

Biz, "Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat" MChJ nomidan rahbar N.Karimova (keyingi o'rinlarda "SOTUVCHI" deb yuritiladi) bir tomondan va Kito tuman Tibbiyot birlashmasi nomidan rahbar SH.Gapparov (keyingi o'rinlarda «XARIDOR» deb yuritiladi) ikkinchi tomon bo'lib, shartnomani non mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida tuzdik.

1. UMUMIY QOIDALAR.

1.1 Ushbu shartnoma asosida tomonlar o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab 22 yanvar 2022 yil gacha muddatga non mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida xo'jalik aloqasi o'rnatiladi.

1.2 Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning yozma ravishdagi kelishuvlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1.3 "Xaridor"ning buyurtmasiga asosan mazkur shartnoma bo'yicha "Sotuvchi" 2 040 000 (Ikki million qirq ming) so'm non mahsulotlarini amaldagi xo'jalik qonunchiligi talablari asosida yetkazib berishni "Xaridor" esa yetkazib berilayotgan non mahsulotlarini uchun o'z vaqtida xaq to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMANING PREDMETI, MIQDORI VA SO'MMASI.

2.1 "Xaridor" tomonidan buyurtma qilinadigan oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining turi, sifati, miqdori va yetkazib berish muddatlari tomonlar o'rtasida o'zaro kelishiladi va quyidagilarni yetkazib beradi.

t/r	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Summasi sum xisobida
1	Qolipli Non 1- nav 0,600 gr (maxalliy)	dona	1200	1700	2 040 000

3. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINING NARXI VA HISOBLASH TARTIBI.

3.1 non mahsulotlarining narxi o'rtacha bozor narxlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan tavsiyaviy narxlardan oshmaganda xolda shartnomada ko'rsatilgan summalarda amalga oshiriladi.

3.2 Non mahsulotlarini narxi o'zgarib turganda tomonlar o'rtasida shartnomaga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritiladi.

3.3 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari"ga asosan byudjet tashkilotlarini tovar (ish, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilib, yetkazib berilayotgan oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlari xaqi shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30 foiz (612 000 so'm) to'lov amalga oshiriladi va qolgan 70 foiz (1 428 000 so'm) to'lov (ishlar, xizmatlar) lar to'lov olingandan so'ng tegishli xisob-fakturalarga asosan to'lovlari amalga oshiriladi.

3.4 Shartnomadagi mahsulotlar qo'shimcha qiymat solig'i summasi 0 so'm

4. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTINING SIFATI.

4.1 "Sotuvchi" yetkazib berilayotgan non mahsulotlarini sifatiga kafolat beradi mahsulot sifati GOST, davlat standartlari va texnik shartlariga mos ravishda muvofiq sertifikatlari bilan berilishini ta'minlashi shart.

4.2 Sifatsiz mahsulot aniqlangan kundan boshlab 3 kun ichida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan sifatsiz mahsulot sifatligi bilan almashtirib berish zarur bo'lsa lozim. Tomonlar iste'mol zarurati bo'yicha teng boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirilib shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish mumkinligi tomonlar kelishadilar.

4.3 "Xaridor" ning vakili non mahsulotlarini miqdori va sifati bo'yicha Sotuvchining omboridan ko'rib qabul qilib olish bilan non mahsulotlarini qabul qilib olish muddati tugallangan hisoblanadi.

5. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTINING YETKAZIB BERISH TARTIBI.

5.1 non mahsulotlarini yetkazib berish, "Xaridor" tomonidan xar oylilik taqdim etilgan buyurtma asosida amalga oshiriladi.

5.2 "Xaridor non mahsulotlarini "Sotuvchi"ning omborxonasidan miqdori, soni va sifati bo'yicha qabul qilib o'z transportida olib ketishni xarajatlarini o'z hisobidan amalga oshirishini, transportni sanitariya xolatiga rioya qilish va texnik talablariga javob beradigan xolda bo'lishini majburiyatini oladi.

5.3 "Sotuvchi" un mahsulotini "Xaridor"ni omborigacha o'z transportida yetkazib beradi.

5.4 "Sotuvchi" non mahsulotlarini yetkazib berishni o'z vaqtida amalga oshirmaganida, yetkazilmagan mahsulotlarni ushbu xolat aniqlangan kundan boshlab kun ichida "Xaridor"ga yetkazib beradi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1 Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgar xisoblanadilar. "Sotuvchi" shartnomada ko'rsatilgan mahsulot to'liq bermasa yoki berishdan bosh tortsa xar bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% miqdorida penya to'laydi (lekin penya miqdori olingan mahsulotlarning umumiy qiymatini 50% dan oshmasligi lozim). Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovar (mahsulot, ish, xizmat) larni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozo etmaydi. Agar shartnoma shartlarini bajarmaganliklari uchun 20% jarima to'laydi va shu bilan birga "Xaridor" mahsulotlarning uchinchi shaxslarga ulgurji yoi chakana narxlarida sotish xuquqiga ega emas.

6.2 "Xaridor" olingan mahsulotning qiymati shartnomada kelishilgan muddatda to'lanmasa to'lov dan bosh tortsa, bosh tortilgan summaning 15% miqdorida jarima va xar kechiktirilgan kun uchun 0,4% miqdorida penya tulaydi. Penyaning umumiy miqdori 50% oshmaslik kerak.

6.3 "Xaridor" shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni belgilangan muddatda olmasa, olishdan bosh tortsa, olinmagan mahsulot qiymatidan 5% (tez buziladigan tovarlar uchun 10% miqdorida) jarima to'laydi. Bunday xolat "Sotuvchi"ga mahsulotni o'z xoxishi bo'yicha boshqa oluvchiga sotish xuquqini beradi.

7. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHMOVCHILIKLARNI XAL ETISH TARTIBI.

7.1 Tomonlarning kelishuvi bilan xal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Qashqadaryo viloyat xo'jalik sudi orqali xal etiladi.

7.2 Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan barcha xolatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari asosida o'zaro javobgardirlar.

8. FORS-MAJOR.

8.1 Xech bir tomon ikkinchi tomon oldida o'ziga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1 Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari" to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiritilib 2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.

9.2 Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa xolatlar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasi ning "Fuqarolik kodeksi" va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunlariga amal qiladi.

9.3 Ushbu shartnoma ikkala tomonga bir xil kuchga ega bulib, ikki nusxada tuzilgan.

10. TOMONLARNING XUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«S O T U V C H I»

«X A R I D O R»

"Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat" MChJ

Kitob tuman Kitob Tuman Tibbiyot Birlashmasi.

Manzil: Kitob sh.Furqat ko'chasi

Manzil: Kitob t. Katta yul -145

x/r: 2020 8000 2006 7818 7001

sh.x.r: 100022860102327073310054006

Bank: Agrobank Kitob tuman filiali

STIR: 200693709 OKONX:91511 IFUT:86100

MFO: 00176

O'zbekiston Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

STIR: 304 339 278

Markaziy bank Toshkent shaxar B.B.X.K.K.M.

OKONX: 81100

x/r: 2340 2000 3001 0000 1010

IFUT: 46110

MFO:00014 STIR: 201 122 919

Rahbar:  N.KARIMOVA.

Rahbar:  Sh.Gapparov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma
2. Loyihaning nomi. Mahsulot (oziq-ovqat) yetkazib berish to'g'risida "Kifti-ob Ulgurji oziq-ovqat" MChJ va Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi o'rtasida tuziladigan 2 040 000 (Ikki million qirq ming) so'mlik non mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida № 22-sonli shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Kitob tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan, markazga 24-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ashurov

2022-yil 27-yanvar